

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVOTSIYALAR
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



«Tasdiqlayman»

Guliston davlat universiteti

Rektori M.Xodjiyev

03 07 2024 y.

**TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI OLIV TA‘LIM MUASSASASI
60810100-QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASHTIRISH
BAKALAVRIAT TA‘LIM YO‘NALISHIGA YAKKA TARTIBDAGI
SUHBAT ORQALI QABUL QILISH UCHUN**

**BAHOLASH MEZONLARI
VA KIRISH SUHBATI SAVOLLARI**

Guliston– 2024 yil

Annotatsiya

Mazkur baholash mezonini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat jarayonlari uchun tuzilgan na'munaviy savollar mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);

shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari), tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Prezidentimizning 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmonini ijro etish maqsadida qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom;
- Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi;
- O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi;
- O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi.

Tizimida kollejlarda va texnikumlar bo'lgan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalariga tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ularning ustavlarini ishlab chiqish hamda ularning faoliyatini ularga muvofiq yo'lga qo'yish topshirildi.

Quyidagilar professional ta'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy AKTni tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;
- xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovasion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Hujjatlarni qabul qilish

1. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasasining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilish uchun har yili oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug'i bilan qabul komissiyasi tuziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) qabul komissiyasining raisi hisoblanadi.

2. Bitiruvchilar har yili 5-iyuldan 25-iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tadilar.

3. Bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatdan o'tishida tizimga shaxsiy ma'lumotlarini kiritishi va quyidagi hujjatlarni yuklashi talab etiladi:

pasport yoki ID-karta nusxasi;

texnikumni bitirganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning nusxasi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali bitiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari muvofiqlashtirilib boriladi.

4. Onlayn ro'yxatdan o'tgan bitiruvchilarning tizimga yuklangan hujjatlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan har yili 5-avgustga qadar o'rganib chiqiladi va o'rganish natijalari bo'yicha abituriyentlarning shaxsiy kabineti orqali ularga xabar beriladi.

5. Bitiruvchilar tomonidan topshirilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlanganda, u suhbatdan (talabalikka qabul qilingandan keyin aniqlansa, talabalikdan) chetlashtiriladi hamda hujjatlari belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

1. Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) har yili 10-avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

2. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translyasiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) zimmasiga yuklatiladi.

3. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10-avgustdan 25-avgustgacha, oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

4. Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

5. Savollar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

Texnikum bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida qabul qilish uchun BAHOLASH MEZONLARI

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

- 1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.
- 2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).
- 3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).
- 4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollari mavjud bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 25 ball beriladi. Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

T/r.	To'g'ri javob	Baho	Xususiy ball
1	4	A'lo	90-100
2	3	Yaxshi	78-89
3	2	Qoniqarli	67-78
4	1	Qoniqarsiz	0-66

25 balldan Har bir savol uchun	Berilgan javobiga qo'yiladigan talablar
20-25 ball	Agar suhbat davomida talabgor tomonidan har bir savolning mohiyati Qonunlar, prezident farmonlari, Hukumat qarorlaridan foydalanilgan va har bir savolga oid muammolarni har tomonlama tahlil qilgan holda ochib berilgan hamda javoblarni tushunarli tarzda bayon etgan va ilmiy ma'lumotlarni umumlashtira olish salohiyatini namoyon etgan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob bergan. Savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilgan. Savolga javo berishda ijodiy yondoshilgan, javob mantiqiy yaxlitlikka erishilgan.
15-20 ball	Agar savolning mazmuni ochib berilgan, meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan, lekin savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etilmasa. Berilgan javobga to'g'ri javob berilgan. Savolning mazmuni to'liq yoritilgan. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
10-15 ball	Agar savolga javob berilgan bo'lsa, biroq fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatilsa, javoblar qonun hujjatlariga amaliyot tahliliga to'liq asoslanmagan bo'lsa, savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etmagan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri javob berilgan, lekin berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan. Misollar bilan asoslanmagan.
0-10	Agar talabgor tomonidan savolning mohiyati to'liq yoritib berilmasa, savolga tegishli qonunlar va amaliy materiallardan to'liq etarli darajada foydalanilmasa, hamda tahliliy xulosalar asoslanmagan bo'lsa. Berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob berilgan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Nizomga 2- ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 85 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyasiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va apellyasiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

Suhbat jarayonida beriladigan namunaviy savollar to'plami

60810100-QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASHTIRISH BAKALAVRIAT TA'LIMYO'NALISHI UCHUN KIRISH SUHBATI SAVOLLARI

I.Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish sohada qanday islohotlar olib borilmoqda?
2. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish sohada qanday islohotlar olib borilmoqda?
3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirilgan klasterlar haqida ma'lumot bering.
4. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tizimlarni bilasiz?
5. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha mamlakatimizga qanday afzallik tomonlari bor?
6. Respublikada qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish qanday agro klasterlarni bilasiz?
7. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlashni xalq xo'jaligida qanday ahamiyati mavjud.
8. Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish sohasini rivojlantirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
9. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanilmoqda?
10. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda qanday zamonaviy va innovatsion texnikalardan foydalanilmoqda?
11. Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha davlatimiz tomonidan qanday islohotlar olib borilmoqda.
12. Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha davlatimiz tomonidan qanday islohotlar olib borilmoqda.
13. Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish mamlakatimiz g'aznasi uchun hamda aholi turmush darajasi uchun qay darajada muhim.
14. Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish uchun mamlakatimizda qanday ishlarni amalga oshirish kerak?
15. Meva-sabzavotlarni yetishtirish shu kungacha qo'llanilib kelayotgan qanday texnologiyalarni bilasiz?
16. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda qanday innovatsion texnologiyalarni bilasiz?
17. Qishloq xo'jalik mahsulotlari sifat ko'rsatgichlari bo'yicha nechta guruhga bo'linadi?
18. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va uning tarmoqlarida metrologik xizmat va ta'minot?
19. Mamlakatimizdagi agrologistika tushunchasiga izoh bering?
20. Agrologistika tushunchasining tarixi va rivojlanish bosqichlari izoh bering?
21. Mamlakatimizda Logistik tizim va agrolagistik zanjir tushunchasiga izoh bering?
22. O'zbekiston paxtani eksport va import jarayonlari afzalliklari va kamchiliklarini izohlab bering?
23. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy turlarini gapirib bering?
24. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning eng qadimiy usullari haqida ma'lumot bering?
25. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning hozirgi ahvoli haqida ma'lumot bering?
26. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning hozirgi ahvoli haqida ma'lumot bering?

27. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga oid qabul qilingan qaror va qonunlar?
28. Qishloq xo'jalik mashinalarini loyihalashdagi umumiy holatlar nimalardan iborat?
29. Meva-sabzavotlarni yetishtirishning xalq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati?
30. Meva-sabzavotlarni yetishtirishda qo'llanilayotgan texnologiyalarning vazifalari?
31. Meva-sabzavotlarni yetishtirishning rivojlanish tarixi?
32. Meva-sabzavotlarni yetishtirishning hozirgi axvoli va rivojlanish istiqbollari?
33. Meva-sabzavot mahsulotlarini no'bud qilmasdan yig'ib olishning ahamiyati haqida ma'lumot bering?
34. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini aniqlash, me'yoriy hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish?
35. Sabzavotchilik qishloq xo'jaligining maxsus tarmog'i, uning o'rni haqida ma'lumot bering?
36. O'zbekistonda sabzavotchilikning yutuqlari haqida gapiring?
37. O'zbekistonda paxtachilik rivojlanishining tarixi va hozirgi ahvoli?
38. Mamlakatimizda zamonaviy logistika markazlarini tashkil etishga nisbatan fikringiz
39. Mamlakatimizda zamonaviy issiqxonalar tashkil etishga nisbatan fikringiz
40. Mamlakatimizda zamonaviy chorva fermer xo'jaliklarini tashkil etishga nisbatan fikringiz
41. Mamlakatimizda zamonaviy omborxonalar tashkil etishga nisbatan fikringiz
42. Bugungi kunda yurtimizda qanday turdagi agrologistika markazi faoliyat yuritmoqda
43. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirish va eksport qilish hajmini so'ngi yillarda necha barobar oshirildi?
44. Respublikaning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish sohasidagi salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan qanday chora-tadbirlar olib borilmoqda
45. Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish borasida olib borilayotgan amaliy tajribalar olib borilmoqda.
46. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirish istiqbollariga qanday imkoniyatlarini bilasiz
47. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini eksport qilish istiqbollariga qanday imkoniyatlarini bilasiz.
48. Mamlakatimizda xorijiy kredit liniyalari hisobidan yirik agrologistika komplekslarini tashkil etish bo'yicha qanday amaliy loyihalarni bilasiz?
49. Mamlakatimizda zamonaviy agrologistika markazlarini tashkil etish bo'yicha qanday investitsiya loyihalarni bilasiz?
50. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda qanday innovatsion texnikalarni bilasiz?

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi tanlashingizni sababi nimada?
2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish sohasida Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligining qanday roli bor?
3. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishini bakalavriat bosqichida davom ettirishdan maqsad nima?
4. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
5. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisi qanday fanlarni bilishi kerak?
6. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisi qanday usullardan foydalanadi?

7. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi kasbida ishlashning qanday mas'uliyatli tomonlari bor deb hisoblaysiz?
8. Texnikumda siz qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirishga oid qanday fanlarni o'zlashtirgansiz?
9. Oliy ma'lumotli Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish kadri bo'lishdan maqsad nima?
10. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning ahamiyati nimalardan iborat?
11. Xalq xo'jaligi sohasida Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisi asosan qaysi kasb egalari bilan hamkorlikda ishlaydi?
12. Bu sohada qanday fanlarni o'zlashtirish muhim deb hisoblaysiz?
13. Hozirgi kunda Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish bilan bog'liq qanday vazifalar amalga oshirilmoqda?
14. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish klasterlarini qanday texnik vositalar bilan taminlash tartibini tushuntiring?
15. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi kasbi nima uchun aholi uchun kerak deb hisoblanadi?
16. Mahalliy aholi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda nimalarni bilishini muhim deb o'ylaysiz?
17. Traktor va avtomobillarning rivojlanish tarixini tushuntiring.
18. Traktor va avtomobillar tasnifini ifodalang.
19. Traktor va avtomobillar asosiy qismlarini tushuntiring.
20. Avtotraktor dvigatellarining tasnifi va umumiy tuzilishini ifodalang.
21. To'rt taktli dvigatellarning ishlash printsiplarini tushuntirib bering.
22. Ikki taktli dvigatellarning ishlash printsiplarini tushuntirib bering.
23. Avtotraktor dvigatellarining mexanizmlarini tushuntirib bering.
24. Avtotraktor dvigatellarining moylash tizimlarini sxematik ko'rinishi orqali tushuntirib bering.
25. Avtotraktor dvigatellarining sovutish tizimlarini sxematik ko'rinishi orqali tushuntirib bering.
26. Avtotraktor dvigatellarining ta'minlash tizimi sxematik ko'rinishi orqali tushuntirib bering.
27. Avtotraktor dvigatellarining rostlagichlarini ifodalab bering.
28. Traktor va avtomobillarning elektr jihozlarini sxematik ko'rinishi orqali tushuntirib bering.
29. Avtotraktor dvigatellarining yurgizib yuborish va o't oldirish tizimlarini tushuntiring.
30. Indikator diagrammalarini tushuntiring.
31. Porshenli ichki yonuv dvigatellarining haqiqiy ish tsikllarini ifodalab bering.
32. Gaz almashish va siqish jarayonlarini tushuntiring.
33. Dvigatellarda yonish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarini tushuntiring.
34. Yonish jarayonlarini ifodalang.
35. Kengayish jarayonlarini misollar keltirib tushantirib bering.
36. Dvigatellar ish tsikli ko'rsatkichlarini ifodalang.
37. Karbyuratorli dvigatellarda aralashma hosil qilish jarayonini sxematik ko'rinishi orqali tushuntirib bering.
38. Dizellarda aralashma hosil qilish jarayonini tushuntiring.
39. Krivoship-shatun mexanizmi dinamikasini tushuntirib bering.
40. Dvigatellar ishining ekologik ko'rsatkichlari nimalardan iborat.
41. Avtotraktor dvigatellarining krivoship-shatun mexanizmi sxema orqali tushuntirib bering.
42. Avtotraktor dvigatellarining krivoship-shatun mexanizmi tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
43. Avtotraktor dvigatellarining krivoship-shatun mexanizmi ishlashini tushuntiring.
44. Avtotraktor dvigatellarining gaz taqsimlash mexanizmini chizing va tushuntiring.
45. Avtotraktor dvigatellarining gaz taqsimlash mexanizmi tuzilishini chizing va tushuntiring.
46. Akkumulyatorlar batareyasi tuzilishi va ishlashini tushuntiring.

47. Akkumlyatorlar generatorlari tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
48. Karbyuratorli dvigatellarning batareyali o't oldirish tizimlarini tuzilishlarini tuzshuntiring
49. Karbyuratorli dvigatellarning kontakt tranzistorli o't oldirish tizimlari tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
50. Dvigatellarning starterli yurgizib yuborish tizimi va tuzulishini tushuntiring.

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Qishloq xo'jalik mahsulotlari sifat ko'rsatgichlari bo'yicha nechta guruhga bo'linadi?
2. Traktor transmissiyasining vazifasini ayting.
3. Uzatish sonini o'zgartirish usuli bo'yicha transmissiyalar qanday turlarga bo'linadi?
4. Ilashish muftasining vazifasi nimadan iborat?
5. Ilashish muftasi burovchi momentni uzatish usuliga qarab qanday turlarga bo'linadi?
6. Traktorning uzatmalar qutisi qanday vazifani bajaradi.
7. Traktor etakchi ko'prigining vazifasi va uning asosiy qismlari nimalardan iborat.
8. Traktor yurish qismining vazifasi va turlarini ayting.
9. Traktorlarning agrotexnika masofasi va koleyasi deganda nimani tushunasiz? Ularning ahamiyatini ayting.
10. Tuproq zichlanishining mohiyatini va turlarini ayting.
11. Tuproqning qayta zichlanishi deganda nimani tushunasiz?
12. Tuproq zichlanishining kamaytirishda qo'llaniladigan qanday tadbirlarni bilasiz?
13. Traktorning ish jihozlariga nimalar kiradi? Gidravlik tizimning vazifasi va turlarini ayting
14. Osmo va tirkalma mashinalarning bir-biridan afzalligi va kamchiliklarini tushuntiring.
15. Quvvat olish valining vazifasi va turlarini ayting.
16. Traktor xarakteriga bog'liq bo'lgan quvvat olish vali qaysi qishloq xo'jalik mashinalari uchun mo'ljallangan?
17. Traktor xarakteriga bog'liq bo'lmagan quvvat olish vali qaysi qishloq xo'jalik mashinalari uchun mo'ljallangan?
18. Davlat metrologiya nazorati va tekshiruvini o'rganish?
19. Ekinlardan yuqori hosil olinishini ta'minlovchi tuproqning tarkibi qanday bo'lishi kerak?
20. Erga asosiy ishlov berishdan maqsad nima va uning qaysi usullarini bilasiz?
21. Respublikamiz sharoiti uchun qaysi turdagi plugdan foydalanish yuqori samara berishining mohiyatini tushuntiring.
22. Dalani tayyorlash va haydash ishlari qanday tashkil etishladi?
23. Ikki yarusli yer haydash texnologiyasining ahamiyatini tushuntiring.
24. Nima maqsadda tirmalash ishlari bajariladi? Unda tuproqning qaysi fizik xossasi o'zgaradi?
25. Sho'ri yuvilmagan va sho'ri yuvilgan turoqlarda qaysi rusumdagi tirmalardan foydalanish kerak?
26. Qanday holatda tuproqni molalash talab etiladi? Bunda tuproqning qaysi fizik xossasi o'zgaradi?
27. Qanday dalalar yoppasiga kultivatsiya qilinadi?
28. Dehqonchilik madaniyati deganda nimani tushinasiz?
29. Lazerli yer tekislagichning afzalliklarini ayting.
30. Sug'oriladigan erlarda o'g'it-lardan samarador foydalanish deganda nimalar e'tiborga olinishi kerak?

31. O'g'it solish ishlariga qanday agrotexnik talablar qo'yiladi?
32. O'g'itlarning qanday turlari mavjud? Ularni agroximik kartogrammalarga asosan tuproqqa solishni tushuntirib bering.
33. Ma'danli o'g'itlarni solish-da qo'llaniladigan agregat turlarini va ularning afzalliklarini ayting.
34. Tuproqqa o'g'itlarni solishda uning samaradorligini oshirish yo'llarini ayting.
35. Ekinlar urug'ini maqbul ko'mish chuqurligi qanday asoslanadi? Unga ta'sir etuvchi omillarni tushuntiring.
36. Ekinlar urug'ini ekish usullari ularning qaysi xususiyatlariga qarab tanlanadi?
37. Chigit ekishning maqbul muddatlari qaysi omillarga bog'liq?
38. Viloyatlar bo'yicha chigit ekish muddatlarini ayting.
39. Chigit ekish ishlariga qanday agrotexnik talablar qo'yiladi?
40. Chigit ekish ishlari qanday tashkil etiladi?
41. Boshqilib don ekish texnologiyasini tushuntirib bering.
42. Qator orasiga ishlov berish ishlarining asosiy vazifasi nimadan iborat?
43. Qator orasiga ishlov berishda qanday agrotexnik talablar qo'yiladi?
44. Qator orasiga ishlov berish ishlari qanday tashkil etiladi?
45. Kultivatorning ishchi qismlari turlari va ularning vazifasini ayting.
46. Ekinlarni parvarishlashda amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligini oshirishda nimalarga alohida ahamiyat berish zarur?
47. Zararkunanda, kasallik va begona o'tlarga qarshi kurashishning qanday turlarini bilasiz?
48. Kimyoviy ishlov berish usullarining qanday turlari mavjud? Bu usullarni amalga oshirishda qanday agregatlardan foydalaniladi?
49. Kasalliklarga qarshi kurashishda qaysi usuldan foydalanish samarali hisoblanadi?
50. Begona o'tlarni yo'qotishning agrotexnik usullarini ayting

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi

1. Kultivatorni agregatlovchi traktor o'zgartirilganida harakat uzatmasining uzatish soni ham o'zgartiriladimi?
2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining optimal miqdorlarini ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?
3. Texnik va urug'lik chigitlarni tayyorlash tartibi.
4. Agregatning ekinzorga ishlov berishdagi qamrov kengligi qanday omillarga bog'liq?
5. Qanday maqsadda rezervuar ichiga gidroaralashtirgich o'rnatiladi?
6. Qanday maqsadda kimyoviy modda eritmasini ekinzorga maydaroq zarrachalarga parchalab purkash ma'qul hisoblanadi?
7. Pluglar traktorga agregatlanishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
8. Osma plugni xaydash chuqurligi qanday o'rnatiladi?
9. Sho'ri yuvilgan maydonlar og'ir tirmalar bilan tarmalash mohiyatini izohlang.
10. Tirmalash jarayonining maqsadi nimadan iborat?
11. Turmalarning turlarini va ularning asosiy afzalliklarini ayting.
12. Sho'rlanmagan maydonlarda ma'danli o'g'itlar yer haydashdan oldin solinadi?
13. O'g'it solish ishlariga qo'yiladigan agrotexnik talablarni ayting?

14. NRU-0,5 rusumli o'g'it sepish agregatini tuzilishini ayting va ishlatilishini tushuntirib bering.
15. Chigit ekish agregatining tarkibini va uni ishga tayyorlashda bajariladigan tadbirlarni izohlang.
16. Tuproq zichlagichning taranglovchi prujinasini vazifasi va mohiyatini tushuntiring.
17. Chigit ekishga qo'yiladigan agrotexnik talablarning mohiyati haqida ma'lumot bering
18. Boshqoli don ekish agregatining tarkibini ayting va uni ishga tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
19. Don ekish ishlariga qo'yiladigan agrotexnik talablar nimalardan iborat va ularning bajarish sifati qanday baholanadi?
20. Donni pushtaga ekish ishlari qanday tashkil etiladi?.
21. Ko'chat o'tqazish ishlarining o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
22. Ko'chat o'tqazishning qanday usullarini bilasiz?
23. G'o'za qator orasiga ishlov beradigan agregatning asosiy foydalanish ko'rsatgichlarini bilasizmi?
24. Kultivator ishining sifatli bo'lishi uchun o'rnatiladigan ishchi qismlarning to'liq sonini bilasizmi?
25. Mahalliy o'g'it solish ishlariga qanday agrotexnik talablar qo'yiladi?
26. Paxtani mashinada terib olishda qanday turdagi mashinalardan foydalaniladi?
27. Paxta terish mashinalarning asosiy afzalliklarini ayting.
28. Mashina terimiga qo'yiladigan agrotexnik talablarni ayting.
29. Boshqoli don hosilini yig'ib-terib olishda qanday turdagi g'alla kombaynlari qo'llaniladi? Ularning afzalliklarini ayting.
30. G'alla o'rimiga qo'yiladigan agrotexnik talablarni ayting va ularning asosiy mohiyatini tushuntirib bering.
31. Barabanli yanchish qo'rilmasi bilan jihozlangan kombaynlar qanday dalalardagi g'allani o'rishda yaxshi natija beradi?
32. Kartoshka kovlashning o'ziga xos xususiyatlariga nimalar kiradi?
33. Kartoshka va sabzavotlarni yig'ishtirib olish qanday tashkil etiladi?
34. Kartoshka va sabzavotlarni yig'ishtirishga qo'yilgan agrotexnik talablarni ayting.
35. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi tanlashingizni sababi nimada?
36. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish sohasida Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligining qanday roli bor?
37. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishini bakalavriat bosqichida davom ettirishdan maqsad nima?
38. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
39. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisi qanday fanlarni bilishi kerak?
40. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi kasbida ishlashning qanday mas'uliyatli tomonlari bor deb hisoblaysiz?
41. Texnikumda siz qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirishga oid qanday fanlarni o'zlashtirgansiz?
42. Oliy ma'lumotli Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish kadri bo'lishdan maqsad nima?
43. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning ahamiyati nimalardan iborat?
44. Xalq xo'jaligi sohasida Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisi asosan qaysi kasb egalari bilan hamkorlikda ishlaydi?
45. Bu sohada qanday fanlarni o'zlashtirish muhim deb hisoblaysiz?

46. Hozirgi kunda Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish bilan bog'liq qanday vazifalar amalga oshirilmoqda?
47. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish klasterlarini qanday texnik vositalar bilan taminlash tartibini tushuntiring?
48. Qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi kasbi nima uchun aholi uchun kerak deb hisoblanadi?
49. Mahalliy aholi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda nimalarni bilishini muhim deb o'ylaysiz?
50. Traktor va avtomobillarning rivojlanish tarixini tushuntiring.

Kafedra mudidri:



M.To'raqulov